



“MUNGLI KO‘ZLAR” ASARIDAGI VULGARIZMLARNING LEKSIK TAHLILI

Kadirova Ulfatoy Shavkatbek qizi

Andijon davlat universiteti Kompyuter
lingvistikasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Email: matkarimovaulfatoy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asarida ishlatilgan vulgarizmlar leksik tahlil qilinadi. Ularning badiiy-estetik vazifasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: leksik tahlil, vulgarizm, so‘kish, qarg‘ish, haqorat so‘zlar.

Аннотация. В данной статье будет проведен лексический анализ вульгаризмов, использованных в произведении выдающегося детского писателя Худойберди Тухтабаева “Mungli ko‘zlar”. Освещается их художественно - эстетическая функция.

Ключевые слова: лексический анализ, вульгаризм, ругань, проклятие, оскорбление.

Annotation. This article will provide a lexical analysis of the vulgarisms used in the work of the outstanding writer of children’s literature Khudoyberdi Toktabayev “Mungli ko‘zlar”. The artistic and aesthetic function of the vulgarism is highlighted.

Keywords: lexical analysis, vulgarism, swearing, curse, insult.

Til badiiy asarning asosiy vositasi hisoblanib, yozuvchining g‘oyasini, fikr va tuyg‘ularini ifodalaydi. Shu bois adabiy til doirasida ba‘zan turli uslubiy qatlamga xos so‘zlar uchraydi. Ulardan biri vulgarizmlar bo‘lib, so‘zlashuv nutqiga xos qo‘pol ifodalardir. Ular asarda salbiy obrazni ifodalash, xalqona ohang berish, tabiiylikni yaratish uchun xizmat qiladi.

Vulgarizmlar – haqorat ma‘nosida qo‘llanadigan so‘zlar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma‘nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so‘zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.¹

Adabiy tilda vulgarizmlar, xalqona so‘zlashuv ohangini yaratish, qahramonning ijtimoiy mavqeini ko‘rsatish, salbiy xarakterli obrazlarni ochish, muhit va holatni real shaklda ifodalash uchun xizmat qiladi. Vulgarizmlarni xarakter va emotsional yo‘nalishiga ko‘ra ularni so‘kish, qarg‘ish, va haqorat so‘zlariga ajratishimiz mumkun.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asari o‘zbek bolalar adabiyotida falsafiy va psixologik mazmunga ega bo‘lgan asarlardan biri hisoblanadi. Bu asarda insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, mehri,

¹ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005. - B.271

sog‘inchi va orzulari kabi hissiy tuyg‘ulari ifodalanadi. Shu jarayonda muallif ayrim joylarda vulgarizmlardan, ya‘ni so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan qo‘pol so‘zlardan foydalanadi. Biroq bu holat asarning badiiy qiymatini pasaytirmaydi, balki asarning emotsional va ekspressiv ta‘sirini kuchaytiradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida tildan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati — xalqona so‘zlar va og‘zaki nutq uslubining badiiy til bilan uyg‘unlashuvidir. Yozuvchi bolalar va kattalar nutqini real hayotdagidek tasvirlaydi, shuning uchun ayrim qo‘polroq, hissiy so‘zlar asarda tabiiy eshitiladi.

Masalan asarda ba‘zi qahramonlar og‘zidan chiqqan “ahmoq”, “ochofat qishloqi”, “pismiq”, “haromxo‘rlar”, “go‘ringda tong‘iz qopg‘ur”, “tilingga chipqon chiqqur”, “besh panjangni og‘zingga tiqmay o‘l” kabi vulgarizmlar ishlatiladi.

Bu gaplarni **o‘sha go‘ringda to‘ng‘iz qopg‘ur** o‘rgatgan. Bizga **haromxo‘r** deb laqab qo‘ygan ham o‘sha. Dadangga aytaman **tilingga chipqon chiqqurni** mahalladan ko‘chirtirib yuboradi. (X.To‘xtaboyev. *Mungli ko‘zlar*). Shu asardagi jumladan ko‘rinib turibdiki, vulgarizmlar, shuningdek qo‘pollikni so‘kish, qarg‘ishlar bilangina ifoda qilmay, balki ishtirokchilarning ruhiy holati, xarakteri, muloqot vaziyati va shu kabilar haqida kitobxonda aniq tasavvur paydo qilishga ham xizmat qiladi. Bu esa uning pragmatik vosita sifatida o‘rganish uchun asos bo‘ladi.²

Ancha mahal, tak, deb turdi-da, trubkani taq etkizib o‘rniga qo‘yib, xo‘mraygancha, negadir, ko‘zimga emas, qorninga tikilidi:

-Ahmoq!

-O‘z ixtiyorim bilan kelganimni bir joyga qayd qilib qo‘ying.

-Ahmoq! (X.To‘xtaboyev. *Mungli ko‘zlar*).

Yuqoridagi matnda militsioner va bola o‘rtasidagi muloqot aks etgan bo‘lib, bolaning qilgan ishidan jahli chiqqan militsioner uni “ahmoq” deb so‘kadi. Bu yerda “ahmoq” vulgarizm bo‘lib, so‘kish ma‘nosini ifodalamoqda. O‘zbek tilining “Izohli lug‘atini ko‘radigan bo‘lsak, ahmoq – [esi past tentak] aql bilan ish qilmaydigan, aqlga zid, be‘mani ishlar qiladigan, shunday ishlarga yo‘l qo‘yadigan.³ Yozuvchi vulgar so‘zdan badiiy asar qahramonining nutqiy xususiyatlarini ifodalash maqsadida foydalangan.

Bechora onamda nima ayb, beshta bolani katta qilguncha adoyi tamon bo‘luvdi... kela solib **haromsan, buzuqsan**, deb onaginamni sudrab ko‘chaga olib chiqib sazoyi qildi-ya! (X.To‘xtaboyev. *Mungli ko‘zlar*). Asardan olingan parchadagi “haromsan”, “buzuqsan” vulgarizmlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bolaning ichki kechinmasini va voqeaga munosabatini kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Emotsional va ekspressiv bo‘yoqdorliliga ko‘ra haromsan birligi kuchli, salbiy haqoratni ifodalasa, “buzuqsan” birligi esa keskin, salbiy tahqirni ifodalayapti.

- Ochopat **qishloqi**, besh panjangni og‘zingga tiqmay o‘l, **pismiq**. Hu, **badnafs** bo‘lmay o‘l, pora olgan qo‘llaring go‘rda chirisin. (X.To‘xtaboyev. *Mungli*

² Rustamova S. Adabiy asarlarda vulgarizm, varvarizm, argo, jargo uslubiy pragmatic vosita sifatida. *Modern Science and Research* (2024). 3(12), - b.43

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006 – В.130

ko‘zlar). Bu yerda adib asar qahramonning tarang hissiy-emotsional holati, alami, qahr-u g‘azab, nafratni ifodalash uchun vulgar so‘zlardan mahorat bilan foydalangan.

Vulgarizmlarni tarkibiga ko‘ra so‘z, so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z yoki gap shaklida uchratishimiz mumkin. Masalan, so‘z shaklidagi vulgarizmlar: “tentak”, “tekinxo‘r”, “haromxo‘r”, “ahmoq”, “buzuq”; so‘z birikmasi shaklidagi vulgarizmlar: “go‘ringda to‘ng‘iz qopg‘ur”, “tilingga chipqon chiqqur”, “ko‘zingni qarg‘alar cho‘qigur”; gap shaklidagi vulgarizmlar: “ko‘zlaring o‘yilgur”, “besh panjangni og‘zingga tiqmay o‘l”, “topgan puling yil oshingga buyursin” kabi. Bunday vulgarizmlar ma‘nosiga ko‘ra la‘nat, qarg‘ishni ifodalagan.

Ko‘rinib turibdiki, so‘z holatidagi sodda vulgarizmlar, asosan, haqorat va tanbehni ifodalagan bo‘lsa, so‘z birikmasi va gap holidagi vulgarizmlar qarg‘ish ma‘nosini ifodalagan. Xudoyberdi To‘xtaboyevning vulgarizmlardan foydalanishi asarning badiiy ohangini buzmagani, aksincha, ular uslubiy vosita bo‘lib, badiiy asar individualligini ko‘rsatish uchun xizmat qilgan. Demak, asardagi vulgarizmlar o‘zbek tilining “noadabiy” qatlami elementi bo‘lishi barobarida nutqning tabiiy, xalqona, realistik ko‘rinishini ifodalovchi uslubiy vosita hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtaboyev X. *Mungli ko‘zlar*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.308
2. Internet manbalari. <https://en.wikipedia.org/wiki/Vulgarism>
3. Yo‘ldoshev M. *Badiiy matnning lisoniy tahlili*. – Toshkent: Hamidov N.H, 2008. – B.120
4. Jamolxonov H. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: Talqin, 2005.- B.271
5. Sayfullayeva R. va boshqalar. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.416
6. Rustamova S. *Adabiy asarlarda vulgarizm, varvarizm, argo, jargo uslubiy pragmatik vosita sifatida*. Modern Science and Research, 2024. 3(12), - B.42–47.